

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG`ICH TA'LIM USLUBIYATI KAFEDRASI**

Eshbekova Dildoraning

5141600–Boshlang`ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim  
yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun «**Boshlang`ich  
ta'lim o`quvchilarini mustaqil fikrlashlarga o`rgatishning ilmiy-  
metodik asoslari (ona tili va o`qish fanlari misolida)**»  
mavzusidagi

**B I T I R U V   M A L A K A V I Y   I S H I**

**Ilmiy rahbar:**

**katta o`qituvchi Eshmurodov A.**

**JIZZAX -2011**

## **REJA:**

**KIRISH**.....

### **I BOB. BOSHLANG`ICH SINFLARDA AMALGA OSHIRILADIGAN MUSTAQIL ISHLARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**.....

1.1. Boshlang`ich ta'lim jarayonida o`quvchilarning mustaqil ishlariga qo`yiladigan talablar.....

1.2. IV-sinfning «Ona tili» darslaridagi mustaqil o`quv topshiriqlarining tuzilishi, vazifalari va imkoniyatlari.....

### **II BOB. Boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarning faol va mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga oid mustaqil ishlar**.....

2.1. 4 sinflarning ona tili darslarida o`quvchilarning tafakkurini rivojlantiruvchi noan'anaviy darslarni tashkil etish usullari.....

2.2. Nutq - o`quvchilarning faol va mustaqil fikrlashlarini shakllantiruvchi asosiy manba sifatida.....

2.3. 4-sinf o`quvchilarning faol va mustaqil fikrlashlarini shakllantirishda ularning nutqiga qo`yiladigan talablar.....

**XULOSA**.....

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**.....

## KIRISH

**Tanlangan va amalga oshirilgan muammo (mavzu)ning fandagi va o`quv jarayonidagi roli hamda uning dolzarbligi.**

Yangi asr o`qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg`or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» asarida O`zbekistonda qabul qilingan o`ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan<sup>1</sup>. Buni ta'minlash bo`lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo`llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug`ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o`zining «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo`lishi lozim,” deb ta'kidladi<sup>2</sup>.

O`zbek (ona) tilini o`qitish markazida til o`rganuvchilarning o`zaro hamda o`qituvchisi bilan nutqiy muloqoti turmog`i lozim bo`ladi. Ammo mana shu muloqot

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - Toshkent: O`zbekiston,2009. – 6.7.

<sup>2</sup> I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

to`g`ri yo`lga qo`yilishi uchun grammatika qonun qoidalarini yaxshi bilishga qo`maklashuvchi topshiriqlardan iborat mashg`ulotlar nazariy yoki amaliy ahamiyat kasb etibgina qolmay, talabalarning til o`rganishga bo`lgan qiziqishini shakllantiradi, orttirishga ham hissa qo`shishi talab etiladi.

Ana shu qiziqishni shakllantirishda, uni tobora mustahkamlab borishda qiziqarli grammatik topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda tayanch grammatik bilim olgan talabalar uning amaliy tadbirini tavsiya etilajak qiziqarli topshiriqlar misolida rivojlantirishlari ko`zda tutiladi.

O`qituvchi har bir mavzu va topshiriqni nafaqat nutq o`stirishga, shuningdek, yoshlar dunyoqarashini boyitishga, tafakkur doirasini kengaytirishga ham xizmat qildirishi shart ekanligini yodda tutishi darkor.

Til ta'limidagi to`rt zaruriy amal – tinglash, so`zlash, o`qish va yozishning mutanosib tarzda olib borishga harakat qilish zarurligini ta'kidlash joiz. Ammo mavzuning mazmuniga mos ish tutib, bir xil topshiriqlar og`zaki nutq, boshqalari yozma nutq ko`nikmalarini mustahkamlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, o`zlashtirilgan har bir mavzu darsdan tashqari tadbirlar bilan uzviy bog`lanishiga erishish lozim. Bularni o`rni bilan sahna siqishlarini tashkil etish, rolli o`yinlar o`tkazish yaxshi samara beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda va odilona nazar tashlanganda tanlangan va amalga oshirilgan muammo (mavzu)ning o`zi nihoyatda dolzarbligini, qolaversa uning o`quv jarayonidagi roli benihoyat katta ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi.

**Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari:** 4-sinflarning ona tili darslarida o`quvchilarning tafakkurini rivojlantiruvchi o`quv topshiriqlari, xususan

mustaqil ishlarning bajarishda ularga qo`yiladigan talablarni aniqlash, o`quv topshiriqlarining tuzilishi, vazifalari va imkoniyatlarini tavsiflash, boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarning faol fikrlashlarini va tafakkurini rivojlantirishda nutqning o`rni va rolini belgilash, uning muhim vosita ekanligini lingvistik-grammatik o`yinlar vositasida o`quvchi-yoshlarning bilim saviyalari yanada yuqorigi bosqichlarga ko`tarish va mustahkamlash borasida fikr-mulohazalarni yuritishi, shu sohada qo`llangan dastlabki ijodiy tajribalarimizni baholi qudrat bayon etish-muhokamaga qo`yilgan ushbu kamtarin malakaviy bitiruv ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni o`z oldimizga qo`ydik:

1. 4-sinflarning ona tili ta'limi darslarida amalga oshiriladigan, o`quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan mustaqil o`quv topshiriqlarining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

2. Mustaqil o`quv topshiriqlarini bajarish jarayonidagi o`quvchilarning tafakkurini shakllantiruvchi omillarini asoslash;

3. Nutq o`quvchilarning faol fikrlashlarini shakllantiruvchi asosiy manba sifatida va vosita ekanligini izohlash;

4. 4-sinflarning ona tili ta'limi darslarida noan'anaviy o`quv mashg`ulotlarini tashkil etish usullarini va shu asosda to`plagan pedagogik tajribalarimizni bugungi himoyaga tavsiya etish.

### **Malakaviy bitiruv ishining manbasi:**

Mazkur ishning manbasi-fakultetimiz mutaxassisligi mos keladigan va shu sohada ishlashimiz mumkin bo`lgan bosqich-boshlang`ich sinf ona tili darslarida grammatik o`yinlarni o`tkazish yo`li bilan o`quvchilar bilimlarini mustahkamlash.

### **Malakaviy bitiruv ishining mavzusi natijalarining joriylanishi hamda uning tarkibi:**

Malakaviy bitiruv ishi mavzusi dastlab fakultet ilmiy Kengashida, Institut o`quv uslubiy kengashida tasdiqlangan va rektor buyrug`i bilan rasmiylashtirilgan.

Dastlabki himoya kafedra yig`ilishi muhokamasidan o`tib, ochiq himoyaga tavsiya etilgan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, 2 bob ( birinchi bob 2 paragrafdan, ikkinchi bob 3-paragarafdan iborat). Shuningdek, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

# **I BOB. BOSHLANG`ICH SINFLARDA AMALGA OSHIRILADIGAN MUSTAQIL ISHLARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

## **1.1. Boshlang`ich ta'lim jarayonida o`quvchilarning mustaqil ishlariga qo`yiladigan talablar**

Ta'limning poydevori hisoblangan boshlang`ich tizim o`quvchini yoshligidanoq har tomonlama etuk va barkamol qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Bu mas'uliyatni to`g`ri his etgan har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi darsga puxta tayyorlangan holda ko`rsatmali qurollardan foydalanib dars o`tsa, bolalarga bilim berish ancha osonlashadi, bir soatlik saboq mazmundorligi ancha oshadi. Ayniqsa, bu borada ona tili darslaridagi o`quv materiallar o`quvchilar oldiga ijodiy izlanish, tashabbuskorlik xislatlarini qo`yadi. Darslikdagi o`quv topshiriqlarni bajartirishda turli usullar va zehnlarni o`stiruvchi vositalardan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki, boshlang`ich sinf o`quvchilari bir soatlik darsda ko`pi bilan 15-20 daqiqagacha diqqatlarini to`play oladilar, shundan so`ng beixtiyor ularning xayollari bo`linadi. Shuni to`g`ri his etgan boshlang`ich sinf o`qituvchisi darsni bir xil andozada o`tmay, balki rang-barang usullar va uslublar asosida olib borsagina ko`ngildagidek natijaga erishadi.

O`quvchilarning “Ona tili” darsligidagi nazariy va amaliy xarakterdagi o`quv materiallarini egallashda, qolaversa, egallangan

bilim va ko`nikmalarning qay darajada ekanligini aniqlab olishda mustaqilishlarning o`rni alohida ahamiyatga ega.

O`quvchilarning mustaqilishlari o`zbek tili darslarining barcha bosqichlarida o`tkaziladigan, o`qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko`rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, o`quvchilarning ongli ravishda faollik bilan faoliyat ko`rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir.

Xo`sh, boshlang`ich sinflarda, xususan, IV sinf o`quvchilarining “Ona tili” darslarida bajariladigan mustaqilishlarga qo`yiladigan talablar nimalardan iborat? Biz quyida ana shu masala haqida va so`ngra IV sinf dasturidagi ayrim o`quv materiallarini o`rgatishda mustaqilishlarni uyushtirish usullari bo`yicha baholi-qudrat ba'zi fikr-mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Ta'lim jarayonida yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish mezoni didaktikaning muhim printsiplaridan hisoblanadi. Bu esa biz nazarda tutayotgan IV sinf o`quvchilarining “Ona tili” fanidagi o`quv materiallarining puxta o`zlashtiri-lishiga katta ta'sir ko`rsatishiga samarali yordam beradi.

Ma'lumki, IV sinfda o`quvchilar tevarak-atrofdagi predmet-hodisalar, ular orasidagi munosabat haqidagi ma'lum darajada tasavvur va bilimga ega bo`ladilar, natijada ular o`zlarining his-

tuyg`ularini so`zi orqali ifodalaydilar. O`quvchilarda og`zaki va yozma nutq malakasi shakllanib, boshlang`ich darajadagi abstrakt (noma'lum) xarakterdagi fikriy tahlil va xulosalash formalari tobora o`sib boradi. Bu sinf o`quvchilari har bir qoidaning “O`zbek tili”ning qaysi qismiga mansubligini, uning boshqa bir mavzu bilan o`xshash va farqli tomonlari bor yoki yo`qligini tasdiqlash yo`libilangina ayta oladilar. Ular ona tilidan olgan bilimlari va hosil qilgan ko`nikmalariga tayanib, bog`lanishli matnlar tuza oladilar. “Ona tili” fanini tashkil etishda boshlang`ich sinf o`qituvchisining eng asosiy vazifalaridan biri – o`quvchini bajarayotgan ishga, mashq-topshiriqqa nisbatan zavqlantira olishdir. Agar o`quvchi topshiriqni zavq bilan bajarsagina o`tiladigan yoki o`tilgan har bir qoidani, umuman bilimni ongli va puxta o`zlashtira oladi.

O`quvchilar tomonidan bajariladigan barcha ishlarni ularning mohiyati va mazmuniga ko`ra mustaqilish deb bo`lmaydi.

Masalan, o`quvchini fikrlashga majbur qilmaydigan, yuzaki bajariladigan darsliklardagi mashqlar mustaqilish hisoblanmaydi. Bu holat hammaga ma'lum, albatta.

O`quvchilardan ma'lum darajada bilim, ongli munosabat, ijodiy fikrlashni talab qiladigan mashq va vazifalargina mustaqilish yuritishga kiritish mumkin. Har qanday mustaqilish o`quvchi oldiga

muayyan darajadagi masalani hal qilish va unga nisbatan o`z fikrini bildirish vazifasini qo`ymog`i lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, o`tilgan mavzuni eslash, xotiraga keltirish muammoli ta'lim sanalmaydi. Bu faqat o`quvchi xotirasini sinash va o`tilgan mavzu bo`yicha o`quvchining qanchalik bilimga ega ekanligini aniqlashdan iborat, xolos. Muammoli ta'lim o`qituvchining bevosita rahbarligida o`quvchilardan shaxsiy – yakka tartibda faol ongli faoliyatini, qobiliyatini talab qiladigan o`qitish formasidir.

Shu o`rinda, ona tili darslaridagi muammoli ta'lim tushunchasiga, uning mohiyati va vazifalariga ikki og`iz izoh beraylikda, so`ngra, mustaqilishlarni uyushtirishda uning roli qay darajada ekanligi haqida fikrimizni davom ettiraylik.

“Muammoli ta'lim” tushunchasi pedagogik va o`quv uslubiy adabiyotlarda garchand keyingi yillarda paydo bo`lgan bo`lsada, ammo izlanuvchanligi asoslangan o`qitish g`oyasi ming yildan ortiqroq tarixga ega. Masalan, sharq mutafakkirlaridan biri, o`rta asrning buyuk allomasi Abu Ali Ibn Sino o`zining “Donishnoma” asarida qiyinchiliklarni yengish orqali bilimlarni egallashning afzalligini ko`rsatgan edi. Umar Hayyom “Matematik traktatlar” asarida bilish uchun fikrlash zarurligiga, qiyinchiliklarni engish uchun o`ylash zarurligiga da'vat etadi. Al Tusiy esa bilimlarni puxta

egallash uchun mustaqilishlashning zarurligini alohida ta'kidlaydi. Bunday fakt va misollarni yanada davom ettirish mumkin. Lekin bunday g'oyalarning hammasi keyinchalik tilshunoslik fanidagi evristik ta'lim nazariyasining yaratilishiga zamin tayyorladi. Bu nazariyadagi tilshunos olimlar (masalan I.P.Balton, M. A. Ryabnikova, A. g`ulomov, M. I. Mahmudov va boshqalar) o`quvchilarni mustaqil ishlatish yo`li orqali ularni faollashtirishga erishish mumkinligini asoslab berganligi haqiqat.

Muammoli ta'lim o`quvchilarning ijodiy faoliyatini o`stirishga va fikrlash qobiliyatini, bilish ehtiyojini vujudga keltirishga qaratilgan. Chunki, izlanuvchanlikka asoslangan faoliyat muammo yaratish, muammoli vaziyatni vujudga keltirish bilan boshlanadi. Yaratilgan qiyinchiliklarni engish uchun o`quvchilarda mavjud bilimlar etishmay qolganda, u noma'lum bilimlarni egallash uchun izlanishga, ijodiy faoliyat ko`rsatishga majbur bo`ladi. Izlanish esa o`quvchida faollikni va mustaqilishlashga moyillikni vujudga keltiradi.

Ko`ramizki, muammoli ta'lim muammoli vaziyat yaratish va undan elementar tarzda foydalanish orqali amalga oshiriladigan ta'lim usuli sanaladiki, biz quyida o`quv topshiriqlarini bajarishda va mustaqilishlarni uyushtirishda uning roli qay darajada ekanligi haqida so`z yuritamiz.

Masalan, IV sinfda o`qituvchi “Gapning uyushiq bo`laklari” mavzusini o`tar ekan, uyushiq bo`laklar-ning o`ziga xos xususiyatlarini o`quvchilarning puxta o`zlashtirib olishlarini asosiy vazifa qilib qo`yadi.

O`qituvchi ana shu vazifani bajarish uchun muammoli vaziyat yaratadi. Jumladan, berilgan yoki tavsiya etilgan matnlardagi ajratib ko`rsatilgan so`zlarni sanash ohangi bilan o`qib, uyushiq bo`laklarni aniqlash, ularga so`roq berish yoki simvolik tasvirli kartochkalar (geografik yoki tarixiy kartalar bilan berilgan grammatik topshiriqni kartochkalar) tarqatib, shular yordamida uyushiq bo`laklar ishtirok etgan gaplar tuzishni talab qilish, o`qituvchi tomonidan tavsiya etilgan gaplarda nuqtalar o`rniga uyushiq bo`laklarni qo`yish (masalan, bog`da olma, o`rik, anor, nok kabi mevalar pishib yotibdi) kabi mustaqilishlarning har bir ko`rinishi bir muammoli vaziyatdir. Chunki, ana shu kichik muammolarni hal qilish natijasida o`quvchilar dars oldiga qo`yilgan asosiy masalani bilib oladilar, qolaversa, o`tilgan mavzuni yanada mustahkamlaydilar.

Dars jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyat chog`ida ona tilining qonun-qoidalari, ularning o`zaro bog`lanishi, o`xshash va farqli tomonlari aniqlanadi. Muammoli vaziyatning yaratilishi o`quv materialini tushunib o`zlashtirishga istak qo`zg`otadi,

fikrlashda faollikni vujudga keltiradi. Chunki bunday vaziyatda faqat o`qituvchi emas, balki o`quvchilar ham bir-birlariga muammoli ko`rinishdagi savollar beradilar. Masalan, “Kelishik qo`shimchalarning turlanishi” mavzusi o`tilayotganda darslikdagi 96-mashq (bu mashqda so`roqlar o`rniga mos otlarni qo`yib, so`z birikmalarini ko`chirish talab qilingan) bajarilgach, o`qituvchi quyidagi savollar bilan o`quvchilarga murojaat qiladi.

1. Ot bilan ot bog`langanda qaysi kelishik qo`shimchasi qo`llaniladi?

2. Ot fe'l bilan bog`langanda qaysi kelishik qo`shimchasi qo`llaniladi? kabi dars jarayonida o`rtaga tashlangan savol orqali o`quvchilar oldida kuzatish va bilishdan iborat muayyan qiyinchilikni tug`dirish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish zaruratini vujudga keltirish kerak. Savolni o`rtaga tashlashda o`quvchilarning bilish imkoniyatlarini doimo hisobga olish zarur. Chunki, o`quvchilar ma'lum darajada bilim va ko`nikmalarga ega bo`lganlari taqdirdagina muammoli savol ularda fikrlash qobiliyatini o`stirishga yordam berishi mumkin. O`quvchilar mashqni bajarish natijasida hosil qilgan malakalariga asoslanib, savollarga javob beradilar. Ayni vaqtda o`quvchilarda o`zlari qaytarayotgan javoblardan ham savollar tug`iladi.

Masalan, ot bilan ot qaratqich kelishigidan boshqa kelishik qo`shimchasi bilan ham bog`lanishi mumkinmi? Tushum kelishigining qo`shimchasi faqat ot bilan fe'l bog`langanda qo`llaniladimi? Bu kabi savollarga javob topish uchun o`quvchilar diqqatini mashqdan keyin berilgan qoidaga jalb etiladi. Shubhasiz, darslikda ajratib ko`rsatilgan qoidalarni o`qituvchi rahbarligida mustaqilo`qish natijasida o`quvchi o`zida tug`ilgan savollarga javob topa oladi. Muammoli ta'lim izlanuvchanlik xarakterida bo`lganligi sababli ona tilining qonun-qoidalarini faqat xotirada saqlab qolish bilan chegaralanmay, balki ularni amaliy ish jarayonida qo`llash imkoniyatini yaratadi.

Dars jarayonida mustaqilishlarni tashkil etishda ba'zan quyidagi tipik kamchiliklar sodir bo`lishi mumkin:

1. O`qituvchilarning dars jarayonida yo`l qo`yadigan kamchiliklari quyidagicha:

a) mustaqilishning o`quvchilar bilimini kengaytirish va malakalarini takomillashtirish darajasida emasligi, mustaqilishning o`quvchidan aktivligi, tashabbuskorligi, ijodiy fikrlash, etarli darajada ongli faoliyatini talab qilmasligi;

b) mustaqil topshiriq shartining o`quvchilarga tushunarli bo`lmasligi;

v) o`quvchilar bilim saviyasini hisobga olmaslik va differentsial topshiriq berishdan unumli foydalanmaslik;

g) o`quvchilarda mustaqilishlash qobiliyatining qay darajada shakllanganligini hisobga olmaslik;

d) o`quvchilar mustaqilish bilan band bo`lganda o`qituvchining bu jarayondan chetda qolishi, o`qituvchi faoliyatining passivlashishi;

e) mustaqilish natijasini tekshirmaslik, ishda yo`l qo`yilgan tipik xatolarni aniqlay olmaslik;

yo) mustaqilishni tez va sifatli bajarishga o`quvchi-larni qiziqтира olmaslik;

j) dars jarayonida mustaqilishlarni bajarishga ajra-tilgan vaqtlarning ratsional taqsimlanmasligi;

z) mustaqilish vazifalarini oldindan aniq rejalash-tirmaslik va boshqalar.

2. Dars jarayonida o`quvchilarning yo`l qo`yadigan kamchiliklari asosan quyidagilar:

a) o`rganilgan bo`limlarning bo`shligi natijasida uni xotiraga keltira olmaslik;

b) mustaqilishlash qobiliyatining bo`shligi;

v) bajarilayotgan ishga befarq qarash, mustaqilishning maqsadini tushunmaslik;

g) o`z-o`zini nazorat qilolmaslik, qolaversa, mustaqilishda, yo`l qo`yilgan har xil xatolarni payqay olmaslik va boshqalar.

Ko`pincha IV-sinfidagi o`quvchilarning bilim saviyasi, topshiriqni bajarishi bir xil saviyada bo`lmaydi. Ayrim o`quvchilar o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni tez va ongli ravishda bajarsalar, ayrim o`quvchilar, asosan, dangasa va passiv harakatdagilar topshiriqni bajarishga qiynaladilar, unga tushunmaydilar. Shunday bo`lsada, IV-sinfda butun sinfga differentsial yondoshmay turib, hamma o`quvchilarning materiallarni o`zlashtirishlariga erishishi qiyin bo`ladi.

O`quvchilarning bilim saviyasi, shaxsiy qobiliyati hamda mustaqilishlar ko`nikmasini hisobga olgan holda topshiriladigan shaxsiy – yakka tartibdagi mustaqilish differentsial topshiriq hisoblanadi.

Ma'lumki, ba'zan ikki parallel sinfda mustaqilishning bir xil turidan foydalanib bo`lmaydi.

Chunki, bir sinfda o`quvchilar mustaqilishni bajarishda sezilarli qiyinchiliklarga uchramasliklari, ikkinchi bir sinf o`quvchilari xuddi shu topshiriqni bajarishda ancha qiyinchiliklarga duch kelishlari hamda ko`p vaqt sarflashlari mumkin. Shuning

uchun har bir sinfning va hatto, har bir o`quvchining bilim saviyasi, mustaqilishlash qobiliyatini hisobga olib dars berish lozim.

Ijodiy xarakterdagi topshiriqlar ham xuddi yuqoridagiga o`xshash har bir o`quvchining bilim saviyasini hisobga olib berilganda samarali bo`lishi mumkin. Masalan, o`zlashtirishi yaxshi bo`lgan “yaxshi” va “a'lo” baholarga o`qiydigan o`quvchilarga ma'lum bir mavzu yuzasidan berilgan so`zlar yordamida bog`lanishli matn tuzish topshirilsa, o`zlashtirishi bo`shroq, o`rtacha baholarga o`qiydigan o`quvchilarga esa shu so`zlar yordamida alohida-alohida gaplar tuzishning o`zi kifoyadir.

Mustaqiltopshiriqni differentsiallashtirilgan holda bajarish quyidagi natijalarga olib keladi:

a) shaxsiy – yakka tartibdagi topshiriq o`quvchilarning bajarayotgan ishiga bo`lgan ishonchini kuchaytiradi;

b) mustaqilishni har bir o`quvchining qobiliyatini hisobga olgan holda topshirish dars jarayonini faollashtiradi;

v) yakka tartibda uyushtirilgan mustaqilish vaqtni tejashga va barcha o`quvchilarning qariyb bir vaqtda topshiriqni bajarishiga imkon yaratadi;

g) topshiriqni individuallashtirish – yakka tartibda bajartirish ish sifatining yaxshilanishiga sabab bo`ladi;

d) yakka tartibdagi topshiriq o`zlashtirishi bo`sh bo`lgan o`quvchilarning bilim saviyasini yaxshilashga yordam beradi;

e) mustaqilishni yakka tartibda bajarish o`quvchilarning irodasini tarbiyalashga, boshlangan ishni nihoyasiga etkazishga, faol, ongli faoliyat ko`rsatishga o`rgatadi va hokazo.

Mustaqilishni bajarish jarayonida o`zlashtirishi bo`sh o`quvchilarga alohida e'tibor berish zarur. O`qituvchi ularning ishini alohida nazorat qilishi, yo`l qo`yilayotgan xatolarni bartaraf etishi uchun yo`l-yo`riq ko`rsatishi, zarur tavsiyalar berishi, belgilangan vaqtda mustaqilishni bajarishlarini ta'minlashi, ularning qiziqishlarini yanada kuchaytirishi lozim.

Ayrim o`qituvchilar bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilarga dars jarayonida qo`shimcha topshiriqlar berish foydali deb hisoblab, ularga lozim bo`lgan topshiriqlardan tashqari yana qo`shimcha vazifa berishi mumkin. Bu holat noto`g`ridir, chunki o`quvchi berilgan topshiriqlarni bajarishga ulgurmay, keyingisini ham sifatsiz bajaradi. Bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilarga beriladigan har qanday qo`shimcha mustaqiltopshiriq darsdan keyin, ular bilan yakka tartibda ishlash jarayonida amalga oshirilgani ma'qul. Dars jarayonida esa sinf o`quvchilariga bajarilishi lozim bo`lgan mustaqilishlarni bajartirish va ularning ratsional ishlashini ta'minlash zarur.

IV sinf o`quvchilari bajargan mustaqilishlar topshiriqlarining turi va sharti bo`yicha quyi sinflarda bajaradigan mustaqilishlardan birmuncha jiddiy farq qiladi. Bu sinfdagi o`quvchilar mustaqilishning murakkabroq turlarini bajaradigan hamda ularning ongli faoliyat doirasi kengroq bo`ladi. Hatto, bir mavzuni o`tishda qo`llanilgan mustaqilishning ma'lum bir turi keyingi mavzuni o`tishda takrorlansa-da, ammo shu topshiriqqa qo`yilgan talab murakkablashib boradi. Chunki, bu umumdidaktik printsiplarning eng muhim talablaridandir.

Yana shuni qayd etish lozimki, har bir dars jarayonida yoki biror mavzuni o`rganishda mustaqilishning xarakteri o`zgarib borishi ham mumkin. Chunki biror mavzuni o`tishda foydalanilgan mustaqilish turidan ikkinchi bir mavzuni o`tishda foydalanish yaxshi natija bermasligi, ilg`or uslubshunos hamkasabalar tajribalaridan bizga yaxshi ma'lum. Bu erda birgina misol keltiraylik: IV sinfdagi o`qituvchi "Alfavit" mavzusidan takrorlash darsini o`tayotganda mustaqilish sifatida sinf o`quvchilariga ismi va shariflarini alfavit tartibida yozish topshirilsa, "Sifat" yoki "Ot" mavzularini o`tayotganda grammatik topshiriqli kartochkalardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Ko`ramizki, boshlang`ich sinf o`qituvchisi, xususan, IV sinfning "Ona tili" dasturidagi barcha o`quv materiallarini o`rgatish

va dars o`tish jarayonida mustaqilishlarning turli-tuman ko`rinishlaridan foydalanishga to`g`ri keladi. Hozirgi davrda ba'zi boshlang`ich sinf o`qituvchilari, ayniqsa, hali yosh va unchalik tajribaga ega bo`lmagan murabbiylar dars o`tish jarayonida mustaqilishlardan foydalanish va ularni uyushtirish usullari bo`yicha sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Mazkur ishni yozishda hurmatli uslubshunos olimlar va shu sohadagi mutaxassis ustozlarning ishlaridan ijodiy foydalanildi. “Boshlang`ich ta'lim”, “Til va adabiyot ta'limi”, “Ma'rifat” kabi matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tayanch manba sifatida asos qilib olindi. Shuningdek, A.Azizova, R.Ikromovalarning “O`zbek tili” (to`rt yillik boshlang`ich maktablarning 4-sinfi uchun, 4-nashri, Toshkent, “O`qituvchi” nashriyoti, 1993 yil) darsligi ham asos qilib olindi.

Beayb parvardigorning o`zi, deydilar dono xalqimiz. Albatta, ushbu kichik hajmli o`quv-uslubiy xarakterdagi ishimizda ayrim kamchiliklar, munozarali o`rinlar, qo`shilaverishi mumkin bo`lmagan joylar yoki tahrirtalab jummlalar bo`lishi tabiiy. Ishimizning sifatini oshirishga qaratilgan barcha tanqidiy asosli fikr-mulohazalarni samimiyat bilan qabul qilamiz.

## **1.2. IV-sinfning «Ona tili» darslaridagi mustaqil o`quv topshiriqlarining tuzilishi, vazifalari va imkoniyatlari**

Ma'lumki, mustaqil o`quv topshiriqlar ta'lim jarayonidagi keng qo'llanadigan tushuncha bo`lib, u barcha fanlarni o`qitishda asosiy va muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, "Ona tili" fani dasturidagi barcha materiallarni o`qitishda Mustaqil o`quv topshiriqlarning roli benihoya katta. U ta'lim jarayonida asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. "Ona tili" faniga oid mustaqil o`quv topshiriqlar o`quvchilarni bilim, malaka va ko`nikmalar bilan qurollantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bilim esa ana shu Mustaqil o`quv topshiriq orqali bola faoliyatiga o`tadi va puxta egallanadi. Mustaqil o`quv topshiriqlar orqali egallangan bilimlar o`quvchining amaliy faoliyat mahsuliga aylanadi va bu bilimlardan u istagan joyda: tanish sharoitida ham, notanish sharoitida ham bimalol foydalana oladi.

2. Mustaqil o`quv topshiriqlar o`quvchini tarbiyalash va uning faoliyatini rivojlantirish vositasidir. Bular orqali o`quvchi ona tiliga muhabbat bog`laydi, uni qunt bilan o`rganishga dadil bel bog`laydi. Mustaqil o`quv topshiriqlar o`quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda, mehnat faoliyatini rivojlantirishda va mustaqilturmushga tayyorlashda muhim rol o`ynaydi. Natijada o`quvchilar Mustaqil o`quv toshiriqlar orqali hayotdagi va o`qish jarayonidagi qiyinchiliklarni sabot va matonat bilan engishga, mustaqilishlash va o`z bilimini mustaqilravishda oshirib borishga o`rganadi. Mustaqil o`quv topshiriqlar o`quvchilarning individual psixologik

xususiyatlarini – ya'ni xotira, iroda, xarakter va qobiliyatlarini yanada shakllantirishga katta yordam beradi.

3. Mustaqil o`quv topshiriqlar o`quvchilar faoliyatini tarkib toptirish va yanada rivojlantirish vositasi bo`lib ham xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar har bir o`quvchi tomonidan mustaqilravishda bajarishni shart qilib qo`yadi. Chunki, mustaqilfikrlash, noma'lumni izlab topish jarayonining o`zi faol jarayon hisoblanadi. Shu sababli har qanday o`quv toshiriq o`quvchidan ma'lum darajada izlanishni talab qiladi. Izlanish esa harakatli aktiv faoliyatsiz yuzaga chiqmaydi.

Hozirgi davrda Mustaqil o`quv toshiriqlarlarining tahlili sifatini oshirish, o`quvchini tarbiyalash va uning o`quv faoliyatini yanada tarkib toptirishda tutgan o`rni juda katta bo`lganligi uchun ham bu masala juda ko`plab psixologlar, tarbiyachi-o`qituvchilar va uslubshunos olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Shuning uchun ham bu masala hozirgi mustaqillikka erishgan davrda juda dolzarb masala sifatida ona tili o`qitish uslubshunosligida o`zining ilmiy-amaliy echimini kutayotgan vazifalardan biri sanaladi. Boshlang`ich sinf o`qituvchilari o`zlarining ish tajribasida va dars jarayonida darslikdagi va o`quvchilar nutqini o`stirishga bag`ishlangan Mustaqil o`quv toshiriqlarini bajartirishga harakat qiladilar. Lekin ochiq e'tirof etish va tan olish lozimki, ona tili darslarida o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini tarkib toptirishga samarali ta'sir ko`rsatadigan nostandart topshiriqlar (masalan bilishga oid lingvistik masalalar, grammatik o`yin topshiriqlar va topishmoqlar) deyarli qo`llanilmayapti. Bunday ob'ektiv holat esa, shubhasiz, ko`pincha ona tili darslarining zerikarli o`tishiga, o`quvchilarning til materiallariga nisbatan befarq munosabatda bo`lishlariga sabab bo`lmoqda.

Xo`sh, “Ona tili” fanidagi mustaqil o`quv topshiriqlarning qanday turlari mavjud? Ularning mohiyati nimalardan iborat?...

“Ona tili” fanidagi mustaqil o`quv topshiriqlarning tiplarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo`lish lozim: standart va nostandart xarakterdagi mustaqil o`quv topshiriqlar. quyida ularning har biri haqida to`xtalamiz.

### **Standart xarakterdagi o`quv topshiriqlarning mazmuni va mohiyati**

Standart xarakteridagi mustaqil o`quv topshiriqlar deganda biz muayyan algoritm, ya'ni ma'lum bir qolip va andozaga qarab bajariladigan bir xil tipdagi topshiriqlarni tushunamiz. Nostandart xarakterdagi mustaqil o`quv topshiriqlar esa bajarish usuli o`quvchiga noma'lum bo`lgan va izlab topishga asoslangan, mavjud bilimlarni o`xshash bo`lmagan sharoitlarda qo`llash talab qiladigan topshiriqlardir. Bunday tipdagi topshiriqlarni bajarishda muayyan algoritm, ya'ni ma'lum bir andoza va qolip mavjud emas. Topshiriqni bajarish usulini o`quvchining o`zi mustaqilizlab topadi.

“Ona tili” fani dasturlardagi o`quv materiallarini o`qitish jarayonida yuqorida qayd etilgan har ikkala topshiriqlardan unumli foydalanishga to`g`ri keladi. Chunki, ularning har ikkalasi ham o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini taraqqiy ettirishda muayyan imkoniyatlarga egaki, biz quyida ana shu imkoniyatlarni to`laroq ishga solish choralari haqida qisqacha so`z yuritamiz.

“Ona tili” darslarida (shu jumladan, boshlang`ich sinflarning ona tili darslarida ham) standart xarakterdagi mustaqil o`quv topshiriqlarning keng tarqalgan ko`rinishi mashqlar hisoblanadi. “Ona tili” darsliklariga kirgan har bir mashq o`quv materiali

sifatida o`quvchilarning ona tili fanidan olgan bilim, ko`nikma va malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mashq natijasida ular o`zlari egallagan bilimlarni ongli ravishda o`zlashtirish, uni zarur bo`lganda amaliy faoliyatda to`plash imkoniyatlariga ega bo`ladilar.

Boshlang`ich sinflarning “O`zbek tili” darsliklariga kiritilgan mashqlar o`z xarakteri va mazmuniga ko`ra orfoepik, orfografik, so`z yasash, leksik, morfologik, punktuatsion, nutq o`stirish va ayrim hollarda sintaktik va stilistikaga mansub mashqlarni tashkil etadi. Ularni formasiga ko`ra og`zaki va yozma, tuzilishiga ko`ra sodda va murakkab mashqlarga ajratish mumkin. Sof mashqlar o`z mohiyatiga ko`ra biror lingvistik mavzuga oid o`quv materiallarini o`z ichiga olsa, murakkab mashqlar esa bir necha mavzu yoki bo`limga aloqador o`quv materiallarini qamrab oladi.

IV sinfnig “O`zbek tili” darsligidagi har bir mashqning sharti – o`quvchilarning faolligini ta'minlash, u yoki bu mavzularda olgan nazariy ma'lumotlarni amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan. O`qituvchi tomonidan beriladigan mustaqil o`quv topshiriqlarning sharti esa avvalo ko`zlangan yoki mustahkamlanayotgan mavzuning talabiga muvofiq kelishi zarur. Aks holda, o`quvchilar diqqatini asosiy o`quv materialidan o`zlashtirib yuborishi mumkin. Mustaqil o`quv topshiriq sharti – o`quvchilarning yosh xususiyatiga va real o`z imkoniyatiga mos kelsagina, o`quvchida bunday topshiriqni bajarishga bo`lgan qiziqishi ortadi. Bu erda o`qituvchining xizmati shuki, o`z o`quvchilarining o`zlashtirish imkoniyatlariga qarab darslikda berilgan mashqlar shartini birmuncha murakkablashtirishi yoki soddalashtirishi mumkin, albatta.

“Ona tili” darsliklaridagi har bir mashq nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy va o`quvchi faoliyatini rivojlantiruvchi maqsadlarni ham hal qiladi. Mashqlardagi mana shu maqsadlar birligiga erishish uchun avvalo uning materialini tanlashga bo`lgan e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Boshlang`ich sinflarning “Ona tili” darsligidagi (IV sinfdagi) mashqlarning asosiy materiali harf, tovush, so`z, so`z tarkibi, so`z birikmasi va gap kabi mavzular yo`nalishiga qaratilgan. Ularning hammasi til hodisalarining ichki xususiyatlari va mohiyati (mazmuni)ni ochishi, o`quvchilarda yuksak g`oyaviy-siyosiy, ahloqiy, estetik normalarni shakllantirishga qaratilgan bo`lishi, individual psixologik xususiyatlardan tafakkur, iroda, xarakter, qobiliyat kabilarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Ayniqsa, o`quvchilar faoliyatini yanada rivojlantirishda nutq o`stirishga qaratilgan mashqlarning roli juda katta.

Ma'lumki, nutq o`stirishga bag`ishlangan yoki bevosita aloqador mashqlar til materiallarining qiziqarli bo`lishini ta'minlaydi: ularning faolligiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqini o`stirishga samarali ta'sir ko`rsatadigan lingvistik omillar yoki mashqlarning tiplari qaysilar, - degan savol tug`ilishi mumkin. Bu masalada bizning shaxsiy kuzatishlarimiz IV sinfnig “O`zbek tili” darsligi misolida quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1. Mashqdagi so`z, so`z birikmasi va gaplarni bir mavzuda tanlash: bir mavzuda tanlangan so`z, so`z birikmasi va gaplardan bog`liq test(matn)lar tuzish orqali o`quvchilar nutqini o`stirish. Masalan, “Gap. Gap bo`laklari. Gapda so`zlarning bog`lanishlari. Nutq. Tekst” mavzuiga oid 4-mashqdagi keldi, fasli, kuz, oltin, yig`ib olayotir, hosilni, polizdan, kolxozchilar, mo`l singari (tematik) jihatdan bir mavzudagi so`zlardan foydalanganda quyidagi gaplar va bog`liq tekst (matn) tuzish mumkin:

a) Oltin kuz fasli keldi.

b) Polizda yig`im-terim ishlari qizib ketdi.

Sifat mavzusiga oid 159-mashqdagi bo`m-bo`sh, qop-qora, sip-silliq, oppoq, tip-tiniq, top-toza kabi sifatlarni qatnashtirib gap tuzilganda quyidagi tekst(matn)ni tuzish mumkin:

a) Dalani oppoq qor qopladi.

b) Anhordagi suvlar top-toza bo`lib oqmoqda.

v) Uning yuzlari qop-qora bo`lib ketdi...

O`quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tuzilgan bunday gaplarni daftarlariga yozdirib, sifatlarning tagiga to`lqinli chiziqlar chizdirilgandan so`ng ularning yozilishini og`zaki tarzda so`ralsa, o`quvchilar nutqini o`stirish imkoniyatlarini ancha kengaytirgan bo`ladi.

Demak, bir mavzuda tanlangan gaplar birinchidan, o`quvchilarning nutq o`stirish talablariga mos tushadi, ikkinchidan bunday gaplar ona tili o`qitishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordamlashadi.

2. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqini o`stirishga samarali ta'sir ko`rsatadigan omillardan yana biri mashqlar tarkibidagi turli xil matnlardan unumli foydalanishdir. Chunki matnlar bilan ishlash o`quvchilarning til materiallariga bo`lgan qiziqishlariga ham ijobiy ta'sir ko`rsatadi. Mashq tarkibidagi matnlar esa quyidagi turli xil xarakterdaligi bilan izohlanadi: masalan, a) matnning ixchamligi; b) nazariy material talabiga to`la mos kelishligi; v) o`quvchiga emotsional va tarbiyaviy ta'sir ko`rsatishligi; g) janrlar rang-barangligi (she'riy, prozaik, dramatik, publitsistik); d) xarakteriga ko`ra xilma-xilligi (tasvir, hikoya, muhokama, so`rov mazmuni) kabilar.

IV sinf «O`zbek tili» darsliklaridagi juda ko`pchilik mashqlarning mazmuni va mohiyati o`quvchilarning Mustaqil o`quv topshiriqlarni bajarishga qaratilgan. Masalan, biz bu o`rinda “Gapning uyushiq bo`laklari va «Uyushiq bo`laklarning bog`lovchilar yordamida bog`lanishi» kabi mavzulari bilan bog`liq 277-mashq va 285-mashqning matni va talablariga diqqatni qarataylik.

277-mashq. Topishmoqlarni o`qing, ularning javobini ayting.

- |                              |                             |
|------------------------------|-----------------------------|
| 1. U bahorda unadi,          | 3. Chevarlarga kerak doim,  |
| Yozda kuchga to`ladi.        | Ishlatishar opam, oyim.     |
| Kuzda pishib etilib,         | Ipni sarflar, yurar giz-giz |
| Tog`-tog` xirmon bo`ladi.    | YO`llarida qoldirar iz.     |
| 2. Yo`libor to`ppa-to`g`ri,  | 4. Kechasi u yuradi,        |
| Yurib-yurib o`taman.         | Ko`kdan boqib turadi.       |
| Men unga so`z va gapdan,     | Erga nurin sochadi,         |
| Ko`chat ekib ketaman.        | Tong bo`lganda qochadi.     |
| 5. Tog`da, bog`da yashnaydi, |                             |
| qishda, yozda yashnaydi.     |                             |

Har bir topishmoqdagi uyushiq bo`laklarni aniqlab, ularni o`zi bog`langan so`z bilan quyidagidek yozing:

- ko`chat ekib ketadi

285-mashq. O`qing. Uyushiq bo`lakli gaplarni topib, uyushiq bo`laklarning o`zaro qanday bog`langanini ayting.

## MITTI OHU

Sahroda turli hayvonlar poda bo`lib yurishgan edi. Ular sahrodan suv topolmay, tashnalikdan juda qiynalishardi. quduq qazimoqchi bo`lishdi. Eng avval sher ish boshladi, lekin tez charchadi. Ikkinchi bo`lib fil qazishga tushdi, ammo fil ham tezda charchab qoldi. Navbat jirafaga, bo`riga va tulkiga keldi. Ko`p o`tmay ular ham holdan toyishdi. Undan keyin ho`kiz, qoplon, ayiq ishladi. Bari bir suv chiqara olmadilar. Oxiri ishga mitti ohu kirishdi. U ingichka oyoqlari bilan qaziy-qaziy oxiri suv chiqardi. Ohu suv ichmoqchi bo`lganlarni xursand qildi (“g`uncha”).

Ko`ramizki, har ikkala mashqdagi matnlar, nafaqat o`quvchilarning til materialiga (shu mavzuga oid) bo`lgan qiziqish darajasini o`stiradi, balki muhim tarbiyaviy vazifani hal qilishga ham ko`maklashadi. Chunki, 277-mashqning mohiyati o`quvchilarning aqliy faoliyatini yanada rivojlantirishga (topishmoqlar jumbog`ini tezroq echishga) qaratiladi; 285-mashqda esa o`quvchilarga hayvonot va jonivorlar haqida qisqacha ma'lumotlar berish matni orqali uyushiq bo`laklarning o`zaro bog`lanishi haqidagi nazariy ma'lumotlar so`ralgan.

IV sinf “O`zbek tili” darsligidagi o`quv materiallarning bir qismini ifodali o`qishni talab qiladigan mashqlar tashkil etadi. Bunday mashqlarning muhim talabi – ifodali o`qishni grammatik topshiriq bilan uzviy bog`lashdir. Masalan, darslikdagi 98, 149, 202, 334, 352-mashq va boshqa o`quv mashqlari shular jumlasidandir. Quyida shulardan 2 ta mashq namunasini keltiramiz:

202-mashq. She'rni ifodali o`qing, kelishiklar bilan turlangan kishilik olmoshlarini aniqlang.

1. Mening ikki onam bor,

Ikkisi ham mehribon.

Biri menga til berib,

Bulbul kabi sayratdi.

Biri meni bag`rida,

Gullar kabi yayratdi (Uyg`un).

2. Soliha og`ir yaralangan edi, jangchilar undan tez-tez xabar olib turishardi (A.Rahmat). 3. Seni partizanlar olib borib qo`yishadi (S.Baruzdin). 4. Men qism komandirini topdim, unga bosmachilarning asosiy kuchi qaerda turganini aytdim (A.Rahmat). 5. Ular keksalardan yangiliklar haqida so`rashibdi (Nug`oy xalq ertagidan). 6. Sening tanking ko`plab dushmanni yakson qiladi (A.Rahmat).

334-mashq. She'riy parchalarni ifodali o`qing. Ajratilgan so`zlarni so`z turkumi va gap bo`lagiga ko`ra tahlil qiling.

1. Yam-yashil bog`larimda 2. Yurtni yashnatib,

Bulbullar sho`x sayraydi. Keldi go`zal yoz.

Poyoni yo`q yaylovda, Bog` dalalarda,

qo`y-qo`zilar ma'raydi. Ming bitta ovoz.

(F.Ermatova).

(H.Rahmat).

Chamanzorlar, qo`limda so`zlarining o`zak va qo`shimchalarini aniqlab, ularni tegishlicha belgilang.

Ko`ramizki, 202-mashqning sharti she'riy parchalardan kelishik qo`shimchalari va turlangan kishilik olmoshlarini aniqlashga qaratilsa, 334-mashqda esa she'riy parchalardagi ajratilgan so`zlarni so`z turkumi va gap bo`lagiga ko`ra tahlil qilish masalasiga o`quvchilar diqqati tortilgan. So`ngra chamanzorlar, qo`limda so`zlarining

o`zak va qo`shimchalarini aniqlash va ularni tegishli belgilar bilan belgilash vazifasi berilgan. Demak, har ikkala mashqning muhim sharti va talabi ifodali o`qishni grammatik topshiriq bilan uzviy bog`lashdan iboratdir.

Lekin, shu o`rinda alohida ta'kidlash lozimki, boshlang`ich sinf o`qituvchisi o`zlarining faoliyatida ona tili darslaridagi ifodali o`qishni talab qiladigan mashqlar bilan chegaralanib qolmasliklari zarur. Mashq uchun tanlanadigan matnlar faqat «O`qish kitobi»dagi mavjud asarlardan tanlanibgina qolmay, balki dastur va darslikda bo`lmagan, lekin shu sinf o`quvchilarining yosh xususiyatiga to`g`ri keladigan asarlardan ham tanlansa natijalar yanada samarali bo`lishi tabiiy. Biz quyida ana shu xarakterdagi namunalardan ikkitagina keltirish bilan chegaralanamiz, xolos. Ularning sharti va matni quyidagicha: quyidagi namuna sifatida keltirilgan she'rlarni ifodali o`qing. Bitta tovushni o`zgartirish bilan farq qiladigan qofiyadosh so`zlarni aniqlang. Sh'rlarning mazmunini o`z so`zingiz bilan mustaqilso`zlab bering.

1-namuna.      O`roqchi-yu, ketmonchi,  
Bozordagi qo`tir echki.  
Qo`tir echkini so`ydilar,  
Qovurdog`idan to`ydilar.  
Qovurdog`ingni it esin,  
Orqa-bo`yingni bit esin.

yoki

Shaldira qoshiq, shaldira,  
Oq eshakka mindir-a.  
O`gay onangning dardi,

Ko`hna supraning gardi.  
Nonning kuyugin beradi,  
Oshning suyug`in beradi.  
Shildira qoshiq, shildira,  
Oq eshakka mindir-a!  
(Bolalar folkloridan).

2-namuna.

qarg`a tulkini o`lik gumon aylab,  
qo`ndi boshining ustiga poylab.  
Cho`qimoqchi bo`lib endi ko`zini,  
Hiylagar tulki tishladi o`zini.

(A.Avloniy. "Tulki va qarg`a").

Yuqoridagi sahifalarda sharhlangan, izohlangan va namuna sifatida keltirilgan lingvistik mashqlar - Mustaqil o`quv topshiriqlarning bajargan vazifalari quyidagicha:

- a) o`quvchilarni bolalar folklori va adabiyotning go`zal namunalari bilan tanishtiradi;
- b) ularda ifodali o`qish malakalarini shakllantiradi;
- v) bolalar nutqining o`shishiga samarali ta'sir ko`rsatadi;
- g) til hodisalariga (fonetik hodisa) bo`lgan qiziqishlarini yanada orttiradi;
- d) ona tili darslarida ijodkor xalqning ijtimoiy tarixiy hayotidagi real voqealar, ramziy timsollar orqali ifoda etganligini yanada tushuntirish imkonini beradi.

Demak, shu sohadagi mulohazalarimiz va shaxsiy kuzatishlarimizdan kelib chiqadigan xulosa shuki, ona tili darslarida o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini

tarkib toptirish va rivojlantirishda mustaqilish-topshiriqlarning xarakteri xilma-xil. Bunday mashqlarning imkoniyatlarini to`laroq ishga solish uning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo`nalishini kuchaytirishni, nutq o`stirishga qaratilganlik darajasini oshirishni, darslikdagi o`quv materiallarning soddalik va murakkablik darajasini o`quvchilarning real o`quv imkoniyatini hisobga olgan holda asta-sekin oshira borishni taqozo etadi.

## II BOB. 4-SINF ONA TILI DARSLARIDA O`QUVCHILARNING FAOL VA MUSTAQIL FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRISHGA OID

### MUSTAQIL ISHLAR

#### 2.1. 4 sinflarning ona tili darslarida o`quvchilarning tafakkurini rivojlantiruvchi noan'anaviy darslarni tashkil etish usullari

**Maqsad:** Noan'anaviy dars turlari bilan tanishtirish va noan'anaviy darslarni tashkil etish.

**Reja:** 1. An'anaviy va noan'anaviy darslar, ularning ta'limda tutgan o`rni.

2. Dars jarayonida o`quvchilarni faollashtirish, ularni mustaqillikka yo`naltirish.

3. Noan'anaviy dars turlari va ularni tashkil etish.

4. Bir soatlik dars ishlanmasi.

Jamiyatimizning barcha jabhalarida qayta qurish bo`lgani kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham qayta qurish, yangilanish zarurligi namoyon bo`lib bormoqda. Hech sir emas, ta'limning an'anaviy usuli hozirgi kun talablarini qondirmay qo`ydi. Shu bois «Zamonaviy dars qanday bo`lmog`i kerak?» savol tug`iladi. Bu savol keyingi kunlarda ko`pchilik o`qituvchilarni qiziqtirmoqda.

Bugungi kunda boshlang`ich ta'limning sifati, samaradorligi butkul o`qituvchi zimmasiga, uning izlanuvchanligi, fidoiyligi, o`z mas'uliyatini qay darajada xis etishiga bog`liq bo`lib qoldi. Har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi o`zi o`qitayotgan sinf o`quvchilari o`quv yili yakunida fanlardan egallashlari lozim bo`lgan bilim, malaka, ko`nikmalar mezoni talablari darajasida bilim, malaka va ko`nikmalariga ega bo`lishiga erishishi kerak. Shunday ekan darslarni qanday usul bilan olib borish

masalasini o`qituvchi ehtiyoriga berish maqul deb bilamiz. Lekin o`qituvchi aniq maqsad bilan faol va fidokorona mehnat qilishi, darsning har bir bosqichiga mas'uliyat bilan yodoshmog`i lozim. Shuningdek, o`quvchilarga puxta bilim berish va darsning samaradorligini oshirish uchun unga ijodiy va yangicha yondoshib, zamonaviy darslar tashkil qilmog`i kerak. Oshkor aytish mumkinki, hozirgi kundagi darslarimiz kundan-kunga bolalarimizni zeriktirib qo`yadigan tartibda olib borilyapti. Ko`pgina o`qituvchilar hanuzgacha darsni tashkil etish, o`tilgan mavzuni takrorlash va o`quvchilar bilimini baholash, yangi mavzuni bayon etish, uni mustaxkamlash va uyga vazifa topshirish bilan chegaralanib kelmoqdalar. Bunday dars hozirgi kun talabiga mutlaqo javob bermaydi. Bolalarimiz faqatgina tinglovchi bo`lib qolmoqdalar. Tayyor bilimlar o`qituvchi tomonida o`quvchilarga bayon etilmoqda. Ammo «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da kadrlar tayyorlashning milliy modelini belgilashda birinchi o`ringa shaxs qo`yiladi. Bunda asosan o`quvchi shaxsi qolaversa o`qituvchi shaxsi, rahbar shaxsiga yangicha yondoshish, yangicha talablar ko`zda tutiladi. «Ta'limdan asosiy maqsad, bolalarga ilgariidek bilim berish emas, ularni bilim olishga o`rgatishdir. Bunda o`quvchilar paseiv tinglovchi bo`lib qolmay, balki bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishlari kerak. Bu demakki, o`qituvchi bilan o`quvchining o`zaro munosabati va bilim olish jarayonidagi ruhiy holati tubdan o`zgarishi lozim. Yurtboshimiz nutqlarida ta'kidlaganlaridek, «o`quvchi-o`qituvchi munosabatidagi majburiy itootkorlik o`rnini ongli intizom egallashi» kerak. Shundagina musttaqil davlatimiz uchun erkin fikrlaydigan, mustaqil faoliyat ko`rsata oladigan kadrlar etishtirishimiz mumkin».

(«Til va adabiyot ta'limi» jurnali 1998 yil 1-son 18-bob jurnal tahririyatining Jo`ra g`anievich Yo`ldoshevga murojaat etib savollariga olgan javoblaridan).

Demak dars jarayonida o`quvchini faollashtirish, mustaqil faoliyat ko`rsata oladigan qilib etishtirish lozim. Hozirgi kunda o`qituvchilardan talab etilayotgan narsa, o`quvchilarni faolligini kuchaytirish, chunki faollik bor joyda onglilik bo`ladi.

Darslarni zamonaviy usulda tashkil etish uchun bir qator metodik va pedagogik talablarga qattiy rioya qilish lozim. Birinchi navbatda o`qituvchi nazariy va metodik tomondan yaxshi qurollangan va o`z kasbining jon kuyar fidoiysi bo`lmog`i kerak. Ikkinchidan esa, estetik did bilan ma'lum bir tizimda ishlangan ko`rgazmali qurollar va tarqatma didaktik materiallarga ega bo`lishi kerak. Shuningdek, o`zi o`qitayotgan sinf o`quvchilarini o`z farzandi mehri bilan sevishi va o`z oldigan yosh avlodni kelajakning etuk hamda barkamol avlodi etib tarbiyalashdek murakkab va masuliyatli vazifa turganini unutmasligi kerak.

Keyingi yillarda ijodkor o`qituvchilar bolalarning qaerda toliqib qolishlarining oldini olish, ularni o`qishga, ilm olishga qiziqtirish maqsadida turli usullardan foydalanib kelmoqdalar.

Ma'lumki bola maktabga kelganga qadar asosan o`yin bilan mashg`ul bo`lgan. Ularda chaqqonlik, ziyraklik, hozirjavoblik, sinchkovlik, epchillik kabi ijobiy xislatlar kurtak ota boshlagan, lekin hali etilmagan bo`ladi. Muttasil o`yin bilan mashg`ul bo`lgan bolaning faoliyati endilikda o`zgaradi. Kechagi o`yin bilan mashg`ul bo`lgan bola endilikda 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir erga to`plab, talabga rioya qilgan holda o`qituvchi bilan faoliyatda bo`ladi, bilim oladi, mushohada qiladi. Bu bola uchun juda murakkab jarayondir. Uqituvchi yana

shunday vaqtda o`quvchilarni o`quv mashg`ulotlariga qiziqtirish yo`llarini topishi o`z ishiga ijodiy yondoshuvi lozim.

Uquvchilarning darsga bo`lgan qiziqishini oshirish, tafakkurini rivojlantirishda noan'anaviy dars turlarini qo`llash yaxshi natija beradi. Bunday darslarning oddiy darslardan farqi shundaki, o`qituvchi darsni o`yin tariqasida tashkil etadi va bolalarni hayolan turli olamga, ertaklar olamiga, kosmas va hatto marsga ham olib chiqishi mumkin. Masalan, «ertaklar olamiga sayohat», «marsga sayohat», o`yin, munozara (savol-javob), mushohada bellashuv sahnalashtirilgan uyg`unlashgan, test-sinov kabi dars shakllari noan'anaviy darslar jumlasiga kiradi. Bunday dars darslikda berilgan katta bo`lim materiallari o`rganib bo`lingach, chorak (yil) ohirlarida egallangan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash maqsadida o`tkazilishi ham mumkin. Bunday noan'anaviy darslar, albatta, qiziqarli o`tadi. Uquvchilarning diqqati tarbiyalanadi. O`yin faoliyati tobora jiddiy tus olib, mashg`ulot (dars) bilan almashinadi, ya'ni topshiriqlar, suhbatlar, savshl-javoblar asta-sekin murakkablashib boradi. Bazan darsda o`quvchilarni mustaqillikka, ijodkorlikka yo`naltirish maqsadida juda ko`p ish turlaridan foydalangan holda darslar tashkil etiladi. Bunday hollarda dars strukturasi buziladi. Ana shu dars strukturasi buzilishi noan'anaviy dars demakdir. Demak noan'anaviy dars-dars strukturasi buzilishi. quyida biz 4-sinfda grammatika va imlo yuzasidan bir soatlik o`yin darsini ko`rib o`tamiz.

**Mavzu: Tovushlar va harflar**

**Maqsad:** 1. O`tilganlarni takrorlash va mustaxkamlash.

2. O`quvchilarning imlo malakalarini mustaxkamlash.

3. Fikrlash malakalarini o`stirish, chaqqonlik, ziyraklik, topqirlik va jamoatchilik tuyg`ularini tarbiyalash.

**Darsning jihozi:** 1. Harf va so`z plakatlari. 2. Rangli bayroqchalar. 3. Kartochkalar.

Dars turi: musobaqa - bellashuv.

### **Darsning borishi.**

Dars tashkil etilib, uy vazifasi tekshiriladi va hulosa qilinadi.

O`qituvchining kirish so`zi: bugungi darssimz musobaqa-bellashuv-darsi. Biz bugun «tovushlar va harflar» bo`limi bo`yicha egallagan bilimlarimizni o`yin bilan takrorlab mustahkamlaymiz. Hozir sizlar uch guruhga bo`linasizlar:

I qator-birinchi guruh-Topqirlar guruhi.

II qator-ikkinchi guruh-Chaqqonlar guruhi.

III qator-uchinchi guruh-Ziyraklar guruhi

nomini oladi», - deb guruhlar nomi doskaga yozib

<\_>

qo`yiladi. Uyin qoidasi tushuntiriladi.

Uyin uchun birinchi topshiriq. (Har uch guruhga bir shil topshiriq beriladi. Lekin topshiriq asosida bajariladigan ish uchun so`zlar bir - biridan farq qiladi).

So`zlarni alfabit tartibda yozing. (Har 3 guruh uchun 6-8 tadan so`zlar oldindan do`skaga yozib usti to`sib qo`yilgan bo`lishi yoki karton qog`ozga yozib tayyorlangan bo`lsa osib qo`yilishi mumkin).

Topshiriqlar gurux	Chaqqonlar guruhi	Ziyraklar guruxi
Kitob	Olma	Sabzi
Daftar	Anor	Piyoz
qalam	O`rik	Sholg`om
Ruchka	Bexi	Lavlagi
Chizgich	Limon	Kartoshka
Bo`r	Xurmo	turp

Topshiriqni bajarish uchun vaqt ajratiladi. Bunda topshiriq materialining ko`p yoki ozligi hisobga olinadi. Topshiriqni bajarish uchun har qaysi guruhdan o`quvchilar navbat bilan chiqib, so`zlarini alfabit tartibida yozadilar. O`yinni o`qituvchi va guruh sardorlari kuzatib boradilar. Guruhlar vazifani belgilangan vaqt ichida to`g`ri va hatosiz bajarganlariga qarab ish (o`yin) baholanadi. (To`g`ri xatosisiz belgilangan vaqtda bajargan guruh uchun qizil bayroqcha, birgina xato bilan ishni o`z vaqtida bajargan guruh uchun sariq bayroqcha, ikkita xato bilan bajargan guruh uchun yashil bayroqcha beriladi).

### **Ikkinchi topshiriq.**

Bo`sh kataklarga lozim bo`lgan harflarni qo`yib, so`zlar tuzing: assa, hasa, zarra, marra, katta, latta, xissa, kissa. karra, barra, bitta, patta.

Bu topshiriqning bajarilishi ham izohlab baholanadi.

### **Uchinchi topshiriq.** (kartochkada).

Birinchi qatorga jarangli undoshlarni, ikkinchi qatorga jarangsiz undoshlarni yozing.

Jarangli undoshlar:

Jarangsiz undoshlar:

Mazkur topshiriq har uch guruhning sardorlariga kartochkalarida mustaqil bajarish uchun beriladi va vaqt belgilanadi. Vaqt tugagach, ishlar yig`ib olinadi. Bu vaqtda guruhlarda ishlar (o`yin) davom etaveradi. Sardorlarning ishi o`yin ohirida tekshirilib, ularga berilgan baho sardorning o`z guruhida to`plangan ballariga qo`shib beriladi.

**To`rtinchi topshiriq.** Nuqtalar o`rniga lozim bo`lgan harflarni qo`ying.

Roha... Muro... Ozo...

Maqsa... Kamola.;. Bax...

Kvadra...qan... Umi...

Xursan...Oma... Limona...

**Beshinchi topshiriq.**

So`z oxiridagi undosh harfni boshqa undosh bilan almashtirib bir nechta yangi so`zlar hosil qiling.

1-guruhga      11-guruhga    111-guruhga

Bog`    Tuz    Tog`

**Oltinchi topshiriq.**

Ketma-ket kelgan bir xil undosh so`zlar ishtirok etgan maqol va topshiriqlardan ayting.

Avvalo maqollar aytiladi: Sanamay sakkiz dema. Etti o`lchab bir kes. Kattaga hurmatda bo`l kichikka izzatda. Bilim bilan hikmat-oltindan qimmat.

So`ngra topishmoqlar aytiladi: Ikki aka-uka yashaydi, bir-birini ko`rmaydi.qor emas oppoq, yung emas yumshoq. Tilla sandiq ochildi, ichidan zar sochildi. qora

tovuq qaqillaydi, qanotlari shakillaydi. Pak-pakana bo`yi bor, etti qavat to`ni bor.  
(Javoblar: ko`z, paxta, quyosh, tikuv mashinasi, piyoz).

Guruhdagi o`quvchilarning javoblariga qarab ballar (bayroqchalar) beriladi. Har qaysi guruhning umumiy to`plagan ballari aniqlanadi. qaysi guruh ko`proq ball to`plagan bo`lsa, o`sha guruh g`olib hisoblanadi.

Dars tugashiga 4-5 daqiqa qolganda dars yakunlanadi. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilarga savol beradi: Biz bugun qaysi 'Mavzular yuzasidan bellashuv olib bordik? O`quvchilar: «Alfavit», «Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so`zlar», «So`zlar oxirida talaffuz qilinmaydigan undoshlar», «So`z oxiridagi jarngli undoshlarning jarngsizlanishi», «Jarangli va jarangsiz undoshlar» mavzulari yuzasidan bilimlarimizni o`yin orqali takrorlab, mustahkam l adik.

Mana shu mavzularni qaysi bo`lim o`z ichiga oladi?

Bu mavzularni «Tovushlar va harflar bo`limi» o`z ichiga oladi. Uqituvchi o`quvchilarning javoblarini umumlashtiradi va darsni yakunlaydi.

Uquvchilar bilimiga baho qo`yish o`qituvchi har qaysi guruhdan o`yinda faollik ko`rsatgan va to`g`ri javob bergan, o`yin qoidasini buzmagani 3-4 tadan o`quvchi bilimini baholaydi. qolgan o`quvchilar og`zaki rag`batlantiriladi.

### **Savollar:**

Noan'anaviy darslar o`quvchilarning bilim olish faoliyatiga qanday ta'sir ko`rsatadi?

Qanday noan'anaviy dars turlarini bilasiz? Ularning qaysilaridan ko`proq foydalanasiz? Nima uchun?

Hozirgi zamon darslariga qo`yilgan talablar nimalardan iborat?

«O`quvchilar bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishlari kerak» degan fikrni qanday izohlaysiz?

## **2.2. Nutq - o`quvchilarning faol va mustaqil fikrlashlarini shakllantiruvchi asosiy manba sifatida**

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so`z, so`z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o`zaro aloqa va xabar funksiyasini, o`z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatla kishining faol faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O`quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o`stirish nima? Agar o`quvchi va uing tildan bajargan ishlari ko`zda tutilsa, nutq o`stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug`ati, sintaktik qurilishini, bog`lanishli nutqni) faol amaliy o`zlashtirish tushuniladi. Agar o`qituvchi ko`zda tutilsa, nutq o`stirish deganda, o`quvchilar tilning talafuzi, lug`ati, sintaktik qurilishi va bog`lanishli nutqni faol egallashlarigayordam beradigan metod va usullarni qo`llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi to`rt qismga bo`lingan (tovushlar va harflar, so`z, gap, bog`lanishli nutq), shuning uchun ona tili dasturining bo`limlari: «Xat-savod o`rgatish va nutq o`stirish», «O`qish va nutq o`stirish», «Grammatika, imlo va nutq o`stirish» deb nomlangan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o`quvchilar nutqini o`stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo`lishi kerak. O`quvchilar nutqini o`stirishning metodik talabi o`quvchi o`z fikrini, nimanidir og`zaki yoki yozma bayon xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo`lishi lozim. Bu material qanchalik to`liq, boy, qimmatli bo`lsa, uning bayoni shunchaliku mazmunli bo`ladi. Shunday ekan, o`quvchilar nutqini o`stirishning ikkinchi sharti nutqqaoid mashqlarning material ihaqida, bola nutqi mazmunli bo`lishi uchun g`amxo`rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so`z, so`z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo`ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o`stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o`z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda «tilni sezish» shakllanadi.

Nutq o`stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o`rgangan til vositalaridan foydalanib, o`z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o`zlashtiradi. Buning o`zi etarli emas, chunki u nutqni yuzaki o`zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini o`zlashtirish. Maktab bolalarni adabiy tilni sodda so`zlashuv tilidan, dialekt va jargondan farqlashga o`rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so`zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo`lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o`qish va yozish malakalarini o`zlashtirish. Bu bilan bola yozma nutqning xususiyatlarini, uning og`zaki-so`zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O`quvchilar nutq madaniyatini takomillash-tirish. Til kishilik jamiyatida muhim aloqa vositasidir. tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o`quvchilarning nutq madaniyatiga alohida ahamiyat beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun o`qituvchi o`quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o`quvchilar nutqini o`stirish ustida ishlash tushuncha-siga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o`stirishda uch yo`nalish aniq ajratiladi: 1) so`z ustida ishlash; 2) so`z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog`lanishli nutq ustida ishlash.

So`z, so`z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo`lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, siintaksik xizmat qiladi; bog`lanishli nutq esa logika, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Ko`rsatilgan uch yo`nalish parallel olib boriladi: lug`at ishi gap uchun material beradi; so`z, so`z birikmasi va gap ustida ishlash bog`lanishli nutqqa tayyorlaydi. O`z navbatida, bog`lanishli hikoya va insho lug`atni boyitish vositasi bo`lib xizmat qiladi.

O`quvchilar nutqini o`stirish o`z metodik vositalariga ega, o`zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog`lanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

Nutq o`stirishda izchillik, to`rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo`ysundirish ko`nikmasi amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog`lanadi va keyingisiga o`quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo`ysungan holda, nimadir yangilik qo`shadi.

Maktabda o`quvchilar nutqini o`stirishga ona tili o`qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o`stirish faqat ona tili va o`qish darslarininggina emas, balki o`quv rejadagi barcha predmetlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o`tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o`z fikrlarini ovoz bilan - eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o`ylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, «o`ylangan» (fikrlangan) nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining o`ziga qaratiladi. Tashqi nutq tovushlari yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil; farqi - tashqi nutqda nutq organlarining harakati natijasida tovush chiqariladi yoki yozilib bayon etiladi; ichki nutqda nutq organlarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi, tashqi nutqni o`stirishda birdan-bir zaruriy vosita hisoblanadi. O`ylash, fikr yuritish ichki nutq asosida bo`ladi. Ichki nutq o`quvchini tashqi, nutqqa, javobgarlikni his qilib gapirishga o`rgatadi. Ichki nutq jarayonida o`ylash o`quvchining nutqi va tafakkurining o`shida muhim vositadir.

Maktabda o`quvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham o`stiriladi. Bolalar ichida o`qishga o`rganadilar va ichki nutqda materialni o`zlashtiradilar. Turli vazifalarni o`zlari hal qiladilar, asosiysi - o`zlarining og`zaki va yozma fikrlarini tayyorlab oladilar.

Fikrni ifodalash usuliga ko`ra nutq og`zaki va yozma bo`ladi. Og`zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og`zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og`zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutq esa ko`rish va qo`l harakati sezgisi asosiy rol o`ynaydi. Og`zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o`zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og`zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.

Og`zaki nutq ko`pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo`ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo`l qo`ymay bayon qilishni talab etadi, shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi.

### **2.3. 4-sinf o`quvchilarning faol va mustaqil fikrlashlarini shakllantirishda ularning nutqiga qo`yiladigan talablar**

O`quvchilar nutqini o`stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O`quvchilar nutqi mazmundor bo`lsin. Hikoya yoki insho o`quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo`lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko`rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina

mazmunli bo`ladi. Bolalar bilmagan predmet, ko`rmagan voqea-hodisalar haqida etarli tayyorgarliksiz so`zlashga yo`l qo`yilsa, nutq kambag`al, mazmunsiz chiqadi.

Nutq o`stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya'ni material yig`ish, uni muhokama qilish, to`ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o`quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo`lsin. O`quvchilar nutqi mantiqan to`g`ri bo`lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o`rinlar tushirib qoldirmasligi va o`rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo`lmagan ortiqchalikka yo`l qo`yilmasligi talab etilad. Nutq logikasi predmet, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, logik xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o`ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo`lsin. O`quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so`z, so`z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasviirlar bilan ifodalashga o`rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo`lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o`quvchi nutqi til vositalariga boy bo`lishi, u har qanday voziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko`nikmasiga ega bo`lishi zarur. Albatta, boshlang`ich sinf o`quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo`yib bo`lmaydi, ammo o`qituvchi o`quv ishlarida ularning so`z boyligini oshirib borishni har vaqtda ko`zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo`lsin. og`zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o`quvchiga tushunarli bo`lishi zarur. So`zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o`quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo`lsin. Agar nutq ifodali, ya'ni jonli, chiroyli, ishontiradigan bo`lsa, eshituvchiga yoki o`quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so`zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta'sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo`lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so`zlardan sof bo`lishini taqozo etadi.

7. Nutq to`g`ri bo`lsin. Maktab uchun nutqning adabiy til normalariga mos - to`g`ri bo`lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og`zaki nutq esa orfoepik jihatdan to`g`ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to`g`ri bo`lishi uchun so`z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab o`tilgan talablar o`zaro bir-biri bilan uzviy bog`liq bo`lib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo`libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o`stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o`stirish. Shuning uchun o`quvchilar nutqini o`stirishda materialni tayyorlash, takomillash-tirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy jarayonlarga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o`sadi. Tushuncha so`zlar yoki so`z birikmalari bilan ifodalanadi,

shunday ekan, tushuncha til vositasi bo`lgan so`zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so`z (so`z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo`ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog`langandir. Nutq bo`lmasa, tafakkur ham bo`lmaydi, til materiali bo`lmasa, fikrni ifodalab berib bo`lmaydi».

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo`lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug`at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o`stirish uun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xl axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o`rganishning muhim vositasi bo`lib xizmat qiladi. nutqdan o`quvchining fikriy rivojining asosiy o`lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O`quvchining barcha predmetlardan materialni o`zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o`z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo`lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o`sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

## XULOSA

Shunday qilib, ona tilidan ta'lim mazmuni o`quv topshiriqlarida ham o`z ifodasini topadi.

O`quvchilarning o`quv-bilish faoliyatini faollantirishda ularning imkoniyatlari benihoya katta.

O`quv topshiriqlarining sharti o`quvchilar faoliyatini faollashtirishning muhim vositassidir. Topshiriq sharti o`quvchilarni qiziqtirsaгина, uni bajarish jarayonida faoliyat faol bo`ladi.

Topshiriqning material faollikni qo`zg`atuvchi yana bir elementidir. O`quv materialining tematik rang-barangligi, o`quvchilarning til muhiti va o`lka talablariga muvofiq tushishi ularning faolligini oshirishga katta ta'sir ko`rsatadi.

Ona tili darslarida faqat standart topshiriqlar bilan chegaralanib qolmay, balki nostandart topshiriqlardan ham unumli foydalanishga ko`proq zarurat sezilmoqda. Nostandart topshiriqlar o`quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, uni bajarishga bo`lgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa faollikni ta'minlashning muhim omilidir.

Dars jarayonida olib boriladigan o`yinlarning qiziqarli va mavzuga oid bo`lishi o`quvchilarning darsda faol ishtirok etishiga olib keladi.

Ona tili darslari mazmunini takomillashtirish va uni o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatini faollashtiradigan muhim manbaga aylantirish choralaridan yana biri fan ichidagi fan va fanlararo bog`lanish imkoniyatlarini kengroq ishga solishdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. K. Qosimova. «Ona tili o`qitish metodikasi», T., 1985 y.
2. T. Ashrapova. «Ona tili o`qitish metodikasi» T., 1986 y.
3. I. Mirzaev va boshqalar. «O`zbek tili» T., 1978 y.
4. U. Tursunov va boshqalar. «Hozirgi o`zbek adabiy tili» T., 1992 y
5. X. Umarova. «Qiziqarli grammatika» T., 2002 y.
6. R. Sirojiddinov. «Grammatik topshiriqlar» T., 1995 y.
7. O`. Qurbonnazarova. «Mustaqil fikrlashga o`rgatish»., Boshlang`ich ta'lim jurnali., 1992 y. 2-son.
8. A. Mirzaahmedov. «O`quvchilar faolligini oshirishda noan'anaviy darslar»., Til va adabiyot ta'limi jurnali., 1996 y. 3-son.
9. N.Alavitdinova. «Ona tilim – jonu dilim»Boshlang`ich ta'lim jurnali.,2001y, 2-son.
10. M.Hamidova. «Til barcha fanlar kalitidir»,Boshlang`ich ta'lim jurnali.,2003y,3-son.
11. Sh.Sariev. «Nutq sofligi – so`z boyligi», Boshlang`ich ta'lim jurnali, 2001 y, 1-son.
12. Sh.Abdullaeva. «qiziqarli o`yinlar», Boshlang`ich ta'lim jurnali., 1995 y, 3-4-son.
13. Q.Tilovova. «Nutqni boyitish» Boshlang`ich ta'lim jurnali, 1995 y, 3-4-son.
14. B.Ma'qulova. «O`qishga qiziqishni oshirish», Boshlang`ich ta'lim jurnali, 1995 y, 3-4-son.

15. M.Mamatov. «Bilim va sezgirlik», Boshlang`ich ta'lim jurnali, 1995 y, 3-4-son.
16. Boshlang`ich sinflarning ona tili darsliklari va boshqalar.
17. J.G`.Yo`ldoshev, S.A. Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari», T.,O`qituvchi, 2004 y.
18. J.G`.Yo`ldoshev. «Yangi texnologiyaning yo`nalishlari, muammolari, echimlari», Xalq ta'limi jurnali., 1999 y, 4-son.